

*Komilova Mohinur Xasanboy qizi  
Andijon Davlat Pedagogika Instituti  
“Maktabgacha ta’lim” fakulteti  
Logopediya yo’nalishi 1-bosqich  
102-guruh talabasi.*

### **ANATATSIYA**

Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalar tarbiyalash,markaziy va periferik qismlarning zararlanishi,daktil alifbosida taxsil berish,ularni jamiyatga qoshish,kamchiliklarini korreksiyalash,yetarli sharoitlar yaratib berish,tengqurlari bilan muloqat qilish,zaif eshituvchi,eshituvchi va karlarning o’zaro farqlari to’g’risida muloxaza yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** Surdopedagokika,psixologik,sezgi,tafakkur, anomalous children, vizual idrok,daktil nutq,intellektual rivojlanish,sensor sezgi, o’z-o’ziga xizmat.

**Abstract:** In this article, education of hearing-impaired children, damage to the central and peripheral parts, teaching in the dactyl alphabet, integrating them into society, correcting their shortcomings, creating adequate conditions, communicating with peers, the differences between the hearing-impaired, the hearing and the deaf. will be considered.

**Key words:** Deaf pedagogy, psychological, intuition, thinking, anomalous children, visual perception, dactyl speech, intellectual development, sensory perception, self-service.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается воспитание детей с нарушением слуха, поражением центральной и периферической части, обучение дактильной азбуке, интеграция их в общество, коррекция их недостатков, создание адекватных условий общения со сверстниками, различия слуха-слабослышащие и глухие будут учитываться.

**Ключевые слова:** Педагогика глухих, психология, интуиция, мышление, аномальные дети, зрительное восприятие, дактильная речь, интеллектуальное развитие, сенсорное восприятие, самообслуживание.

### **Kirish**

Shiddatli tarzda o‘zgarib borayotgan jamiyatimizda ta’lim oldiga pirovard maqsad sifatida, sog‘lom tengdoshlari bilan bir qatorda, alohida yordamga muhtoj o‘quvchilarni zamonaviy bilimlar, hayotga to‘sqliarsiz uyg‘unlashib ketishining omili sanalgan ijtimoiy malakalar bilan qurollantirish, mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga erishish belgilanmoqda. Shu maqsadda maxsus ta’lim tizimining sifatini

ko‘tarish, takomillashtirish masalalariga, huquqiy-me’yoriy, ilmiy-metodik zaminini yaratishga qaratilgan qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda mazkur sohada erishilayotgan ijobjiy o‘zgarishlar psixologlar, pedagoglar hamda turli soha vakillarining yangi yo‘nalishlardagi hamkorlik faoliyatini bilan chambarchas bog‘liq. Eshsитishida kamkiligi bolgan bolalar jamiyat institutsional tuzilmasida muqim o‘rnashib ulgurganligi bois qisman rasmiylashgan ijtimoiy institut sanaladi. Alovida ehtiyojlilik ijtimoiy institut sifatida jamiyatda ijtimoiy-psixologik, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy-psixologik moslashuv, tibbiy ekspertiza va hokazo kabi butun bir ijtimoiy tizimga mushtarak faoliyatini, ya’ni ijtimoiy sheriklikni talab etadi.

### **Asosiy qism**

Eshitishda kamchiligi bo‘lgan bolalar, zaif eshituvchi bolalar ko‘pincha miningit kasalligidan so‘ng eshituvchi butunlay yoki qisman yoqotgan bolalarga ko‘pincha qadam tashlashda qiyinchilik bo‘ladi:ular osongina gavda muvozanatini yoqotadilar. Eshitish organi quloq zaif bolalarning og‘zaki nutqini rivojlanishida oilaning yordami alovida axamiyatga ega. Eshitishda kamckiligi bo‘lgan bolalar ota onalari oilada tuzatish ishlarini erta boshlashining axamiyatini tushunishi lozim. Eshitmaydigan va zaif eshituvchi kamchiliklari 2-3 yoshigacha tuzatilmasa, gapirmaydigan bolib qoladi. Ular atrof olamdagи ovozlarni qabul qila olmaganidan muloqotga kirisha olmaydi va bunung natijasida umumiy va nutqiy rivojlanishdan orqada qoladi. Shu sababli, yaxshi eshitmaydigan bolalar bilan korreksion ishlar ishlarni barvaqt boshlash tavsiya etiladi. Eshitishda nuqsoni bolgan bolalarni shovqinsiz xarakat qilishga o‘rgatish zarur yani buyumlarni taqqillatmay o‘z joyiga qo‘yish, qadam tashlash va boshqalar. Malumki eshitishda kamchiligi bo‘lgan bola ilk yoshida yani 2-3 yoshida oilasida tarbiyalanadi va bu davrda ota onalari uning rivojlanishi uchun ko‘p ishlarni amalga oshirishi mumkun. Diqqat, tasvvur, og‘zaki xotira rivojlanishining muhum vositalaridan biri gapirib berish bo‘lib, bunda kattalar yani bolalarning yaqinlari qisqa ertak xikoyalar aytib beradi. oilada nutqni shakllantirish, eshitib idrok qilishni rivojlanishining ishlari ota onalarning pedagogik faoliyatidagi barcha bosqichlarini o‘z ichiga oladi va bolaning kundalik faoliyatidagi barcha jihatlarini qamrab oladi. Maktabgacha bo‘lgan davrda bola rivojlanishining erta bosqichlarida boshlangan eshitib idrok qilish bosqichma-bosqich rivojlanirib davom ettiriladi. Bolalar quloqqa tanish nutqiy materiallarni farqlash va tanishga, yani uni eshitishi bilanoq idrok qilishga o‘rgatiladi eshitib idrok qilishning rivojlanishining ishlari ketma-ketligiga mos ravishta bolalar asta-sekin eshitilishi notanish so‘zlarni xam, keyinroq talaffuz qilishni boshlaydi. Agar ota onalar oilada bolani tarbiyalash bo‘yicha surdopedagoklardan maslaxat olib tursa, surdokabinetlar, qisqa muddatli guruxlar, eshitish va nutqni reabilitatsiya qilish markazlarida bola rivojlanishini nazorat qildirib, doimiy ko‘mak olib tursa bu ishlar samaradorligi yanada ortadi. So‘z, gaplarni ko‘rib-eshitib va ko‘rib farqlashga o‘rgatgandan so‘ng, nutqiy materialni taniy olishga o‘rgatiladi. Bunda

nutqiy materialning o‘zi taqdim etiladi. Tanib farqlash uchun nutqiy tovushlar, so‘z va gaplar taqdim etilganda rasm, predmet, o‘yinchoqlar ko‘rsatilmaydi. Bola topshiriqni bajaradi. Bolaning javobi to‘g‘ri bo‘lsa, pedagog tegishli rasm yokui jadvalchani ko‘rsatadi. Ta’limning 1 va 2 yilida dasturda belgilangan material farqlanadigan va tanib farqlanadigan bo‘lganidan so‘ng, 3-yilning ikkinchi yarimdan notanish so‘z va gaplar farqlash uchun beriladi. So‘z va gaplar eshitib (ko‘rib-eshitib emas) farqlanishi va tanib olinishi kerak. Bola eshitgan so‘zni takrorlaydi. Uning talaffuzi bo‘g‘in, so‘z konturi yoki to‘liq so‘z ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Agarda so‘z va gaplar eshitib idrok etilmasa, material ko‘rib eshitib qabul qilish uchun beriladi. So‘zlar takrorlangach, yana bir bor eshitish uchun beriladi. Agarda bola har bir so‘zni noto‘g‘ri bo‘lsa ham takrorlashgi harakat qilsa, pedagog uni rag‘batlantiradi. Maqsadli, izchil ravishda tashkil etilgan mashg‘ulotlar natijasida bolalarning nutq va nonutqiy tovushlarni idrok etish qobiliyati rivojlanadi. Natijada eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolaning eshitish qobiliyatini audiometrik tekshirishda eshituv darajasini, eshituv pasayishini tabiatini aniq bilib olish imkoniyati tug‘iladi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berishni erta boshlashning ahamiyati juda katta. Bu haqda faylasuf va olimlar ko‘plab fikr bildirgan. Chunki maktabgacha yosh davri inson hayotida muhim, aytish mumkinki, hal qiluvchi palla bo‘lib hisoblanadi. Bu davrda asosiy odatlar, ko‘nikmalar shakllanadi, xarakter belgilanadi, ya’ni butun keyingi hayot asoslari quriladi. Zaif eshituvchi bolalar uchun maktabgacha tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ilk davrida, taxminan bir yoshgacha, hali bolaning tili chiqquniga qadar eshitadigan va kar bolalar o‘rtasidagi tafovut u qadar ko‘zga tashlanmaydi. Asta-sekinlik bilan, eshitadigan bola nutqni egallagani sari bu farq ortib boradi. 181 Bir qarashda g’alati tuyuladi: qanday qilib so‘zlarni labdan o‘qib olish va daktil shaklda avvaldan o‘zlashtirish o‘rtasida aloqadorlik bo‘lishi mumkin? Ma’lum bo‘lishicha, bolaning lug’at zahirasi qanchalik boy va umumiyligi rivojlanishi yuqori bo‘lsa (bunga daktil nutq ko‘maklashadi), bolaning labdan o‘qishi shunchalik osonlashadi, u noma’lum yoki labdan noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zning ma’nosini fahmlashi imkon ortadi. Biz og‘zaki nutqdan foydalanishga qarshi e’tirozlarni inkor etish, ularning asossiz ekanini isbotlashga urinib ko‘rdik. Maqsadimiz kar bolani o‘qitishda uning samaradorligi va zaruratiga ishonch hosil qilish. Bu masala mohiyatini anglab yetish kar bola tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan ota-onalar uchun juda muhim. Biroq og‘zaki nutqning ahamiyatini anglab yetishning o‘zi yetarli emas. Natijada kar bola bilan muloqot qiluvchilarning hammasi daktil alifboden qanchalik to‘g‘ri foydalana olishiga bog‘liq. Ota-onalar oldida ikkita vazifa turadi: har bir belgini to‘g‘ri ko‘rsatish va u alifbodagi qaysi harfni anglatishini bilish. Shuning uchun ham ota-onalar bolalari kelajagiga beparvo bo‘lmasligi kerak. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o‘rganish, eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillashtirish, kasb yo‘nalishi bo‘yicha

mehnat qilishlariga erishish, o'qitishning texnik vositalarini takomillashtirish, bog'cha va maktab ta'limining uzluksizligini ta'minlash, respublika bo'yicha sog'liqni saqlash hamda xalq ta'limi tarmoqlari ishlarini muvofiqlashtirish, erta tashxis diagnozi muammolarini hal etishdan iboratdir. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalar uchun ta'lim muassasalari, uning bo'g'inlari birligi va vorisligi asosiga kiritilib, har bir bosqich o'z vazifalarini o'taydi va ayni paytda keyingisi bilan bog'liq. Barcha muassasalar faoliyati asosida yagona maqsad bolalar rivojlanishidagi buzilishlarning oldini olish va korreksiyalash, shaxsni har tomonlama shakllantirish, uni hayotga va mehnatga tayyorlashdan iboratdir. Bu umumiy maqsad butun ta'lim tizimi va uning har bir bo'g'ini ishini yo'naltiradi. Bizning jamiyatda eshitish nuqsoniga ega bolalar ham normal tengdoshlari kabi ham aqlan, ham jismonan tarbiyalanishga haqli bo'lib, mustaqil hayotga, 182 yetuk komil insonlar etib tayyorlanadilar. Olib borilgan kuzatishlar natijasida quyidagi tavsiyalarni aytib o'tishimiz mumkin: - zaif eshituvchilar, kech kar bo'lgan bolalar uchun bolalar bog'chalarini ochish va ishini takomillashtirish; - maxsus bolalar bog'chalari bo'limgan qishloq va shaharlardagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'lim va tarbiya muassasalariga jalb qilish. - ommaviy bolalar bog'chalarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus guruhlar tashkil etish. - eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'lim mazmunini zamon talablari darajasida takomillashtirish; - eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning atrofdagilar bilan erkin mulqotga kirishuvi va surdotarjimonga muhtoj bo'lmasdan so'zlashishning og'zaki va yozma shakllaridan erkin foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va muntazam takomillashtirib borish; - eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uzluksiz ta'limning har bir bosqichida maxsus hamda inklyuziv ta'limini ta'minlash uchun tegishli shatr-sharoitlar, omillarni aniqlash, tanlash va amaliyotga joriy qilish. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limtarbiyasi masalasi bo'yicha ota-onalar, mahallalar, jamoalarni birgalikda, hamkorlikdagi harakatlari samarali natijalarga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;**

1. L.Sh Muhammedova M.Ziyavuddinova „Alohida extiyojli bolalarni oilada tarbiyalashusullari”
2. L.R Mo'minov Sh.R Toxitova „alohida extiyojga ega bolalarga erta karreksion rivojlantiruvchi yordam”
3. Fayziyeva U.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994.-23.b.
4. Alimxo'jayeva F.J. Zaif eshituvchi bolalar eshitish qobiliyatini rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanish. P.f.n. diss...avtoref. –M., 1992.-12.b
5. Сурдопедагогика. Под ред. Е.Г.Речинской Москва. Влад. 2018

6. Марсновская Е.Н. Особенности овладения знаниями и умениями детьми с недостатками слуха. – Л., 2019.
7. Речинская. Е.Г. Дошкольная сурдопедагогика. – М., 2018.
8. Akramova, X. (2020). Коррекционно-педагогические обобенности формирование навыков здорового образа жизни у детей с умственной осталостью в семейных условиях